

**MUTAHASSISLIK FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
TA'LIMNING O'RNI**

Sabirova Ullibibi Sharipovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan bugungi zamoning mehnat bozori va malaka talablarining muhandis kadrlarga qo'ygan talabini bajarishda innovatsion metodlarning o'rni juda yuqori sanaladi. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keluvchi metodlar haqida tahlil va tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, pedagogik loyiha, didaktika, interfaol ta'lim, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar.

Abstract: In this article, the role of innovative methods in meeting the requirements of today's labor market and qualifications for engineers is considered very high. The use of modern teaching methods leads to high efficiency in the teaching process. It is appropriate to choose these methods based on the didactic task of each lesson. While preserving the traditional form of the lesson, enriching it with various methods that activate the activity of learners, the methods that lead to an increase in the level of mastery of learners are analyzed and researched.

Keywords: innovation, pedagogical technology, pedagogical project, didactics, interactive education, problem situation, guiding text, project, role-playing games.

Globalashgan dunyo har qanday vaqtida ochiq va shaffof raqobat maydoniga

taklif qiladi. Shunday ekan bilim, ko'nikmaga ega yoshlarni raqobatga faqatgina ta'limdagi innovatsion qarashlarga raqobatbardoshlikni shakllantira olishi mumkin. Innovatsion pedagogik texnologiyani mazmun-mohiyati, muammo vayechimlarini DTS asosida o'qitiladigan fanlarni o'rganish jarayoniga qo'llashga doir usul va uslublarini ishlab chiqish va joriy etish davrtalabi. Innovatsion pedagogik texnologiya pedagogik loyihasi sifatida fanasoslari bo'yicha o'quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini maqsadgamuvofiq holda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi. Uning metodikadan farqli jihatlari:

- oldindan loyihalanadi.
- yakuniy ijobiy natija kafolatlanadi.

Bu natijani aniqlash mezoni esa o'quv materialini o'zlashtirish darajasi hisoblanib, u har bir mashg'ulot didaktik masalalarni aniq o'rnatish va ularni hal etish texnologiyasi asosi didaktik jarayon samarasi bilan ta'minlanadi.

"Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomo'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barchaimkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz" [1,2]. Bu maqsadni amalgam oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarva ularni joriy qilishning o'rni beqiyosdir. Innovatsion pedagogika-hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangisharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim. Pedagogika-bilimlar tizimidir. Obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zidbo'lmaslik – uning asosiy xarakteristikalaridir [3]. Pedagogika tizimini harqanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillariloyihalashtiradi, birlashtiradi va ushlab turadi ya'ni ushbu tizim asosiybilimlarga asoslanishi asosiy holdir.

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori

samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq [3]. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoxda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlichcha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi .

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Ta'lism oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lism samarasi yuqoriroqbo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lism oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lism jarayoni ta'lism oluvchining maqsad va extiyojariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lism oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lism amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchitalabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lism metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Loyiha", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lism" va b. Interfaol ta'lism strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zigzag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lism metodlari tarkibidan interfaol ta'lism strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Interfaol ta'lism metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lism samaradorligini yaxshilashga xizmat

qiladi.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta'lif metodlarini tanlash nimalarga bog'liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lif metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

- ✓ birinchidan,o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;
- ✓ ikkinchidan,bayon qilinadshan materialning harakteriga bog'liq;
- ✓ uchinchidan,ta'lif oluvchilarining bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;
- ✓ to'rtinchidan,o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;
- ✓ beshinchidan,oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;
- ✓ oltinchidan,o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;
- ✓ yettinchidan,o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darjasasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Xulosa Shunday qilib, oliy ta'lif muassasalaridagi kasbiy ta'lif jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologikpedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- [1]. Anvarovich, A. A., Djurayevna, T. G., & Gulomovna, M. M. The role and significance of using the visual-cognitive approach in higher education.
- [2]. Khamidov Jalil Abdurasulovich, Khujjiev Mamurjon Yangiboevich, Alimov Azam Anvarovich, Gafforov Alisher Xolmurodovich, Khamidov Odil

Abdurasulovich. "Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education." Journal of Critical Reviews 7 (2020), 89-93. doi:10.31838/jcr.07.14.13

[3]. Alimov, A. A. (2016). Improving the Training the Future Teachers of Special Disciplines in Uzbekistan. Eastern European Scientific Journal, (1), 113-117.

[4]. Хўжжиев, М. Я. (2020). Возможности повышения эффективности мультимедиа в процессе урока. Universum: психология и образование, (1), 10-13.